



O‘SPIRINLARNING IJTIMOYIY PSIXOLOGIK RIVOJLANISHIGA IJTIMOYIY TARMOQLARNING TA’SIRI

Salomov Shamsiddin Saboxiddin o‘g‘li

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

“Amaliy psixologiya” kafedrasida o‘qituvchisi

shamsiddinsalomov1@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada o‘spirin yoshidagi shaxslarning ijtimoiylashuv jarayoniga ijtimoiy tarmoqlarning ta’siri, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishning psixologik omillari zamonaviy psixolog olimlarning qarashlari va nazariyalari asosida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: o‘spirin shaxsi, ijtimoiy tarmoqlar, virtual olam, muloqot, kommunikativ qobiliyatlar.

THE INFLUENCE OF SOCIAL NETWORKS ON THE SOCIAL PSYCHOLOGICAL DEVELOPMENT OF ADOLESCENTS

Salomov Shamsiddin Sabokhiddin Ugli. Teacher of the “Practical psychology” department of Tashkent State Pedagogical University named after Nizami.

shamsiddinsalomov1@gmail.com.

Abstract. The article describes the influence of social networks on the process of socialization of adolescents, the psychological factors of using social networks based on the views and theories of modern psychologists.

Key words: adolescent personality, social networks, virtual world, communication, communication skills.

Kirish. Jamiyatda shaxs sifatida faoliyat yuritish ekanmiz, o‘z fiziologik, ijtimoiy va ma’naviy ehtiyojlarimizni qondirish uchun, shaxs sifatida kamol topishimiz uchun tinimsiz harakat qilamiz. Shuning uchun, biz har doim atrofimizdagi boshqa jamiyat a’zolari bilan muloqot qilamiz va tinimsiz axborot almashamiz. Shunday ekan, albatta, ijtimoiy hayotda ro‘y berayotgan har qanday yangilik va o‘zgarishlar, salbiy yoki ijobiy bo‘lishidan qat’iy nazar, bizning shaxs sifatidagi faoliyatimizga o‘z ta’sirini ko‘rsatmasdan qolmaydi. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar so‘ngi o‘n yil ichida hayotimizning ajralmas qismiga aylanishga ulgurdi. Telegram, instagram, facebook va boshqa shu kabi ijtimoiy tarmoqlar bizning



kundalik hayotimizdagi eng muhim axborot va yangiliklar manbai bo'lishdan tashqari, asosiy muloqot manbayimiz, yangi do'stlar orttirish, yangi munosabatlar o'rnatish, emotsiyalar va fikrlar almashish, o'z hissiyotlarimizni namoyon etish vositalari sifatida o'z o'rniga ega bo'lmoqda. Albatta, vaqtini va o'zini boshqara olish ko'nikmalarini yaxshi o'zlashtirgan shaxslar ijtimoiy tarmoqlardan to'g'ri va meyordan oshmagan holatda foydalana oladilar va bu esa ularning ijtimoiy hayoti va psixologik salomatligiga jiddiy ta'sir etmaydi. Lekin hali o'zligini anglash, o'z hayotiy maqsadlarini izlash hamda tashqi ijtimoiy ta'sirlarga tushib qolishga nisbatan moyilligi yuqori bo'lgan 13-18 yosh orasidagi o'spirinlar orasida ijtimoiy tarmoqlarga nisbatan tobelikni ortib borayotgani, bu esa ularning kundalik hayoti, ilm olish jarayonidagi mehnat unumdorligi, kommunikativ qobiliyatlari va psixologik salomatligiga salbiy ta'sirini ko'rsatib kelayotgani juda ko'p kuzatilmoqda.

Virtual olam fenomenining rivojlanishi o'spirinlar orasida yuzma-yuz muloqotdan ko'ra ijtimoiy tarmoqlar orqali kommunikativ aloqalarning amalga oshirilishining jadallashishini anglatadi. Virtual olam bu insonlarning kompyuter texnologiyalari yordamida yaratgan dunyosi hisoblanadi [3]. O'spirinlar orasida ushbu jarayonlarning jadallashuvi ularning shaxslararo munosabatlari, do'stlari, yaqinlari, ota-onasi, oilasi hamda jamiyat bilan yuzma-yuz muloqot qilishning ahamiyatiga qay darajada salbiy yoki ijobiy ta'sir qilishi mumkinligini so'roq ostida qoldirmoqda. Bu esa ushbu jabhalarni kengroq doirada empirik tadqiqotlar asosida psixologlar, sotsiologlar va boshqa ijtimoiy soha vakillarining hamkorlikda faoliyat olib borishi orqali yoritilishi kerakligini talab etmoqda [2].

Tadqiqot metodologiyasi va usullar. Ijtimoiy tarmoqlarning o'spirinlarda ta'sirini yaxshiroq yoritishda ushbu yosh davridagi eng muhim ijtimoiy psixologik o'zgarishlarni eslatib o'tish muhim hisoblanadi. Avvalo, o'spirinlik davri shaxs taraqqiyotidagi tanqidiy o'tish davri bo'lib, bu bosqichda insonlar kuchli jismoniy, emotsional va sotsial o'zgarishlarni boshidan kechiradilar. O'spirinlik davrining odatiy xarakteri o'zlikni kashf etish, boshqarilishga qarshi isyonkorona qarshilik, autonomiya (o'z-o'zini boshqarish) ga intilish va kommunikativ hamda ijtimoiy qobiliyatlarning taraqqiyoti kabilarni o'z ichiga oladi [7].

O'spirinlar jamiyatda o'z o'rnini hamda o'zligini topishga intilish jarayonida atrof-muhit hamda tengdoshlar guruhining ta'siriga tushishga moyil bo'ladilar. Ushbu jarayonda ijtimoiy tarmoqlar o'spirinlarning haqiqiy hayotdagi to'siqlar va ta'sirlardan holi bo'lgan holda turli ijtimoiy rollarni bajarish uchun imkoniyat rolini



bajaradi va bu esa o'spirinlarga ekran ortidan o'zlarini xavfsiz his qilgan holda o'z-o'zini anglashlariga imkon beradi [5].

Bugunga kunda o'spirinlarning hayotida ijtimoiy tarmoqlarning o'rni muqarrar va rad etib bo'lmaydigan hodisa bo'lib, ular an'anaviy muloqotni raqamlashtirish va masofaviylashtirish vazifasini bajarmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar o'spirinlarning nafaqat muloqoti va boshqalar bilan aloqalarini mustahkamlashga yordam bermoqda, balki o'z-o'ziga hurmat va ishonch kabi irodaviy xislatlarni shakllantirayotgan o'spirinlar uchun o'z-o'zini va ichki dunyosini namoyon qilish, ijtimoiy qobiliyatlarini shakllantirish vositasi ham bo'lib qolmoqda. O'spirinlar uchun raqamli olam kattaroq jamoalar bilan bog'lanish, tajribalarni almashish va ijtimoiy ma'qullanishni qabul qilish uchun makon vazifasini o'tamoqda. Lekin ijtimoiy tarmoqlar qaramlik, kiberbulliing (onlayn zo'ravonlik) va psixologik salomatlikka ta'sir qiluvchi bir qancha salbiy oqibatlarni ham keltirib chiqarmoqda [4].

Muhokama va savollar. Ijtimoiy psixologiya doirasida ijtimoiy tarmoqlarning o'spirinlarning kommunikativ qobiliyatlari va kognitiv jarayonlariga ta'siri turli nazariyalar doirasida yoritiladi. Masalan, psixolog olim Albert Banduraning ilmiy qarashlari asosida rivojlangan "Ijtimoiy kognitivizm" nazariyasi shaxsning kuzatish, taqlid qilish va modellashtirish asosida ijtimoiy xulq-atvorni o'zlashtirish jarayonini yoritadi. Ushbu jarayonda raqamli dunyo muhim rol o'ynaydi, chunki undagi ijtimoiy xatti-harakatlar, xabarlar va axborotlar shaxs tomonidan taqlid qilinishi mumkin bo'ladi. Turli ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy axborot vositalaridagi kontentlar ularni qabul qiluvchi foydalanuvchi shaxslarga namunaviy obrazlar yaratadilar. Bundan tashqari, auto-samaradorlik qobiliyati (shaxsning ma'lum bir harakatni bajara olishi uchun o'ziga nisbatan ishonchi) media xabarlar natijasida kuchayishi yoki kuchsizlanishi mumkin. Ushbu jarayonni ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqalayotgan obrazli xabarlar, videolar hamda reklamalarning qay darajada shaxsning real olamdagi voqelik va ijtimoiy normalarning qabul qilish jarayoniga, shuningdek, shaxsning xulqi va kutuvlariga qay darajada ta'sir qilishida kuzatishimiz mumkin. Boshqacha aytganda, shaxs reklama yoki ommaviy axborot vositalarida ko'rgan va kuzatgan voqelik bilan real hayotdagi voqelik o'rtasida nomutanosiblikka duch keladi. Bu esa, fikrimizcha, o'spirinlik yoshidagi shaxsning real voqelikdagi kutuvlari amalga oshmasligi, ijtimoiy hayotdagi normalarning qabul qilishdagi qiyinchiliklar kabi holatlarni yuzaga keltirishi mumkin. Natijada, o'spirinlarning shaxslararo munosabatlarida, ijtimoiylashuv jarayonida va ota-onalari hamda kattalar bilan bo'lgan munosabatlarida salbiy oqibatlar yuzaga kelishi mumkin [1].



Ikkinchi nazariya bu “Foydalanish va qoniqish” nazariyasi bo‘lib, u shaxsning nima uchun ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishi va undan qanday qoniqish va mamnunlik hissini olishini tushuntiradi. Ushbu nazariyada ijtimoiy tarmoqlar foydalanuvchilari o‘z xohishlari hamda intilishlariga ko‘ra ommaviy axborot vositalaridan foydalanishda faol bo‘ladilar. Shaxsning ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishiga reallikdan qochish, axborotlarga intilish, shaxsiyatni shakllantirish va ijtimoiy mansublik kabi sabablar motivlar bo‘lishi mumkin. Nazariya vakili Wang K.ning fikricha, yangi texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlar, media vositalarining rivojlanishi shaxsning oldida tanlovlarning kengligi, rang-barangligini ta‘minlaydi, shaxsga borliqdagi real jamoalar hamda virtual jamoalarga qo‘shilish imkonini, shaxs o‘zini qaysi jamoada qulay his etsa, o‘sha jamoaga qo‘shilish uchun qaror qilish imkonini beradi [6]. Bu esa o‘spirinlardagi ijtimoiy mansublik hamda o‘z-o‘zini anglashga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishning oson yo‘lini ham beradi, bundan tashqari, fikrimizcha, ulardagi qaramlikning oshib ketishiga ham sabab bo‘ladi.

Leon Festinger tomonidan taklif etilgan “Kognitiv dissonans” nazariyasiga ko‘ra esa ijtimoiy tarmoqlar va media vositalari shaxsning xulq-atvori va ishonchi o‘rtasidagi kelishmovchiliklarni hal qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy tarmoqlar ko‘pincha insonlarga ularning shaxsiy ishonchiga qarama-qarshi qarashlar va axborotlarni namoyon qiladi, bu esa shaxsda dissonans vujudga kelishiga sabab bo‘ladi. Dissonans ilmiy atamasi lotinchada dissono- uyg‘unlashmay, moslanmay yangrayman degan ma‘noni anglatadi. Psixologiyada esa bu atama shaxs ongida yuzaga keladigan va bir-biriga mos kelmaydigan hamda bir-biri bilan kurashadigan qarashlar, tanlovlar va qarorlar hisoblanadi. Shaxs ushbu dissonansni yengish uchun o‘z ishonchini o‘zgartirishi, qarama-qarshi axborotlardan voz kechishi yoki ijtimoiy tarmoqlardan o‘zida avvaldan mavjud bo‘lgan qarashlarga mos g‘oyalarni izlashi mumkin. Fikrimizcha, hali o‘zligi va o‘z qarashlari shakllanib ulgurmagani o‘spirinlarning ham virtual dunyo orqali shakllanadigan dunyoqarashi, tafakkuri, g‘oyalari va kutuvlari real hayotdagi reallik bilan mos kelmaganda haqiqiy dissonans paydo bo‘lishi mumkin. Bu esa ularning tashqi dunyodan uzoqlashuvi, ijtimoiy izolyatsiya hamda virtual olamga qattiq bog‘lanib qolishiga sabab bo‘lishi mumkin. Natijada, o‘spirin shaxsda real hayotda muloqotchanlik, emotsional va ijtimoiy intellektning rivojlanmay qolishi kabi ko‘plab muammolar paydo bo‘ladi. O‘spirin shaxs muloqot jarayoni uchun muhim bo‘lgan emotsiyalar, empatiya hamda simpatiya kabi hissiyotlarni real hayotda olish imkonidan mahrum bo‘lishi hamda ularga bo‘lgan ehtiyojni esa ekran orqali izlashni boshlashi ham mumkin. Bu esa, fikrimizcha, o‘spirin shaxsida o‘z ichki kechinmalarini hissiyoti, emotsiyalari bilan



ko'rsatib bera olmaslik, ortiqcha uyatchanlik hamda real munosabatlarda o'zini noqulay his etish kabilarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy tarmoqlarning shaxsga, ayniqsa o'spirinlar hayotiga ta'siri salbiy yoki ijobiy ahamiyatga ega hisoblanadi. Nazariyalar hamda zamonaviy olimlarning qarashlariga ko'ra, ijtimoiy tarmoqlar o'spirin shaxsining yangi do'stlar izlashi hamda jamoalarga qo'shilishi, bu orqali undagi mansublikka bo'lgan ehtiyojini qondirishi imkonini beradi. Bundan tashqari, turli qarashlar va g'oyalar almashinuvi orqali ijtimoiy tarmoqlardagi jamoalar bilan onlayn muloqot qilishi va o'zligini anglashi hamda dunyoqarashini boyitishi mumkin. Lekin ijtimoiy tarmoqlardan noo'rin hamda meyordan ortiq foydalanish yuzma-yuz muloqot qilish ko'nikmalarining shakllanishiga, sog'lom ijtimoiy va emotional taraqqiyotga salbiy ta'sir ko'rsatishi ham mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Jiayao C. Evaluation of causes and impacts of emotional pressure among teenagers. *Advances in Social Science, Education and Humanities Research*. 2022. <https://doi.org/10.2991/assehr.k.220105.265>.
2. Lei S., Su W. An End-to-end method for teenagers potential depression detection on social media. *IEEE International performance, computing, and communications conference (IPCCC)*. 2021. <https://doi.org/10.1109/ipccc1483.2021.9679449>.
3. Mamanazarova D.M. "Yoshlar hayotida virtuallashuv sabablari va omillari". "Science and innovation international scientific journal" <https://doi.org/10.5281/zenodo.6975091> 2022.
4. Muller H. Association between social media usage and depression among teenagers in United States of America. 2023. *International Journal of Sociology*. <https://doi.org/10.47604/ijjs.1816>.
5. Seserman C. Assessing the way gender norms affect teenagers' behaviour in the context of social media. *Social research reports*. 2021. <https://doi.org/10.33788/srr13.1.4>.
6. Wang K. The impact of social media on teenager. *Communications in Humanites Research*. 2024. <https://doi.org/10.54254/27537064/24/20231539>.
7. Chen R. Assessing mental comfort in social media interaction. 2022. <https://doi.org/10.31124/advance.20101181>.